SCIENCE AND SOCIETY-
FAN VA JAMIYAT- НАУКА И ОБЩЕСТВО
ILMIY-TAHLILIY JURNAL

Issue - 5(2025) / ISSN 2992-913X Available at www.uznauka.uz

# AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA INSON QADRI VA QADRSIZLANISHINING FALSAFIY TAHLILI

**Shakarov Bobur Xusniddinovich**
Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi
bobурshakarov1989@gmail.com

***Annotatsiya:*** *inson qadrining falsafiy tahlili axborotlashgan jamiyatda insonning majburiyatlarini, mas'uliyatlarini va ijtimoiy ro'lini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Axborotlashgan jamiyatda odamning qadri va uning hayotdagi o'rni o'ta muhim ahamiyatga ega. Maqolada axborotlashgan jamiyatda inson qadri va qadrsizlanishining falsafiy tahlili ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *qadrsizlanish, axborot, kompyuter texnologiyalari, jamiyat, inson.*

# ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА И УНИЖЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

**Шакаров Бобур Хуснiddинович**
Преподаватель Ташкентской медицинской академии
boburshakarov1989@gmail.com

***Аннотация:*** *Философский анализ человеческих ценностей требует переосмысления обязательств, ответственности и социальной роли человека в информационном обществе. В информационном обществе ценность человека и его место в жизни имеют первостепенное значение. В статье рассматривается философский анализ человеческого достоинства и его обесценивания в информационном обществе.*

***Ключевые слова:*** *амортизация, информация, компьютерные технологии, общество, человек.*

SCIENCE AND SOCIETY-
FAN VA JAMIYAT- НАУКА И
ОБЩЕСТВО
ILMIY-TAHLILIY JURNAL



Issue - 5(2025) / ISSN 2992-913X

Available at www.uznauka.uz

# PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF HUMAN VALUE AND DEVALUATION IN THE INFORMATION SOCIETY

**Shakarov Bobur Khusniddinovich**
Teacher of the Tashkent Medical Academy
bobburshakarov1989@gmail.com

***Abstract:*** *the philosophical analysis of human value requires a reconsideration of the obligations, responsibilities and social role of a person in an information society. In an information society, the value of a person and his place in life are of paramount importance. The article considers the philosophical analysis of human value and devaluation in an information society.*

***Keywords:*** *devaluation, information, computer technologies, society, man.*

Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi va inqilobiy o‘zgarishlarining asosiy xususiyatlaridan biri insonning hayotida axborotning ulkan ro‘lining shakllanishidir. Axborot texnologiyalari (AT)ning targ‘iboti, internet, ijtimoiy media va ommaviy axborot vositalari insonlar hayotini qayta shakllantirishga, shu bilan birga, ixtisoslashgan kadrlar tarkibining o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bu jarayon faqat iqtisodiy, balki madaniy, ijtimoiy va falsafiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Axborotlashgan jamiyatda inson qadrining ahamiyati har tomonlama o‘zgarmoqda. Jamiyatning ishlash mexanizmlari, ta’lim tizimi va mehnat bozorida axborot ro‘lining oshishi, ma’naviy va intellektual qobiliyatlarni talab qiluvchi kadrlar talabining kengayishiga olib kelmoqda. Inson uchun axborotni to‘g‘ri qabul qilish, undan foydalanish va uni qayta ishlash qobiliyatlari murakkab va zarur ko‘nikmalariga aylanmoqda. Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishda axborotlashgan jamiyatga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi, ularning intellektual resursi jamiyatning rivojlanishi uchun asosiy omilga aylanadi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivoji insonlarga ilmiy, ijtimoiy va kasbiy sohalarda yangi imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birga ularni jamiyatga qo‘shilish, yangiliklarni qabul qilish, axborotlarni qayta ishlash va ishlatish qobiliyatini kuchaytirishga majbur qiladi.

Qadrsizlanish — bu axborotlashgan jamiyatda kerakli kasb egalarining etmaydigan yoki noqonuniy ravishda bir xil ishda faoliyat ko‘rsatayotgan odamlar sonining ortishi. Bu holatning kelib chiqishi turli sabablarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Birinchi sabab — insonlar axborot texnologiyalariga to‘liq moslashishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu kadrlarning sonini kamaytirib, mutaxassislar etkazib bergan ma’lumotlarni ishlatishda va har qanday muammoga to‘g‘ri echim topishda yoki raqobatdoshlikka kirishishda muammolar yuzaga keladi.

Ikkinchi sabab — bilim va ko‘nikmalarning tez o‘zgarishi. Axborotlashgan jamiyatda har doim yangi texnologiyalar va yangilangan talablar bilan bog‘liq o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Buning natijasida ko‘plab odamlar amaliy bilimlarga ega emas, ular to‘g‘ri kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lmasligi mumkin. Shunday qilib, ayrim kadrlar ishsiz qoladi yoki ish faoliyatida kam samarali bo‘ladi.

Inson qadrining falsafiy tahlili axborotlashgan jamiyatda insonning majburiyatlarini, mas’uliyatlarini va ijtimoiy rolini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Axborotlashgan jamiyatda odamning qadri va uning hayotdagi o‘rni o‘ta muhim ahamiyatga ega. Qadriyatlar va axloqiy normalar axborotlashgan jamiyatda qo‘shimcha muhimlikka ega. Axborot to‘g‘ri, to‘la va adolatli etkazilishi talab qilinadi. Buning natijasida axborot tarqatish va uni qabul qilish bilan bog‘liq ma’naviy va axloqiy masalalar yanada kattalashadi. Inson qadri, eng avvalo,

yoshlar, fan, ta’lim va ijtimoiy xavfsizlik tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak. Uning manfaatlari va hayotining sifati axborotni qanday foydalanishga va undan qanday natijalar olishga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda axborotlashgan jamiyatda inson qadrining ahamiyati o‘sadi, shu bilan birga, qadrsizlanishning oldini olish uchun faqatgina bilim va ko‘nikmalarni oshirish, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni yanada mustahkamlash talab etiladi. Kadrlar to‘g‘ri va ishonchli axborotga ega bo‘lishi, ularning jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyatini to‘g‘ri tushunishlari zarur. Jamiyatning rivojlanishini ta’minlash va uning barqarorligini saqlash uchun axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, inson qadrining qiymati va ustunligini hamda ijtimoiy javobgarlikni bilish muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Latipova N. Yoshlar O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy tuzilmasida //Ijtimoiy fikr – Inson huquqlari. 2004. №3. –B. 138 – 145.

12. Madrahimova F. Axborotlashgan davr va “ommaviy madaniyat” tahdidlari//, - Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2013. 1-son B. 146.

3. Mo‘minov A. Axborotlashgan jamiyat va shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish muammolari//, - Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2012. 3-son B. 148.

4. Murodova Sh. Mediavirus:postanovka problemы//.- Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2012. 2-son B. 148.